

ZAMONAVIY RAQAMLI DUNYODA O'SMIRLAR MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI TAVSIFI

BEGIMKULOV UMIDJON BOIROVICH

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati,
Guliston shahri, 4-mavze.

Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
+99897-331-26-86

E.mail: umidbke2686@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan davrda o'smirlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishning dolzarb masalalari yoritiladi. Shuningdek, yoshlarning internet, ijtimoiy tarmoqlar va virtual muhit ta'sirida dunyoqarashi o'zgarib borayotgan bir paytda tarbiya metodologiyasi hamda samarali metodikalari tahlil qilinadi. Oila, maktab va jamiyat hamkorligining ahamiyati, innovatsion pedagogik yondashuvlar va axborot madaniyatini rivojlantirish usullari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, ma'naviy tarbiya, axloqiy tarbiya, o'smirlar, internet, media madaniyat, pedagogik metodika, innovatsion ta'lim.

Аннотация. В данной статье рассматриваются актуальные вопросы формирования духовно-нравственного воспитания подростков в эпоху развития современных цифровых технологий. Также анализируются методология и эффективные методы обучения в условиях изменения мировоззрения молодежи под влиянием интернета, социальных сетей и виртуальной среды. Обсуждается важность сотрудничества между семьей, школой и обществом, инновационные педагогические подходы и методы развития информационной культуры.

Ключевые слова: цифровые технологии, духовное воспитание, нравственное воспитание, подростки, интернет, медиакультура, педагогическая методология, инновационное образование.

Abstract: This article highlights the current issues of forming the spiritual and moral education of adolescents in the era of the development of modern digital technologies. It also analyzes the methodology and effective methods of education at a time when the worldview of young people is changing under the influence of the Internet, social networks and the virtual environment. The importance of cooperation between family, school and society, innovative pedagogical approaches and methods for developing information culture are discussed.

Keywords: digital technology, spiritual education, moral education, adolescents, Internet, media culture, pedagogical methodology, innovative education.

KIRISH.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv davrida raqamli texnologiyalar inson hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib bordi. Ayniqsa, o'smirlar hayotida internet,





mobil qurilmalar, ijtimoiy tarmoqlar va sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni ortib bormoqda. Bu holat yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Raqamli muhitda turli xil axborotlarning tez tarqalishi, virtual muloqotning kuchayishi va ommaviy madaniyatning kirib kelishi o'smirlarning qadriyatlari, xulq-atvori hamda dunyoqarashiga ta'sir etmoqda. Shu sababli zamonaviy sharoitda yoshlarni ma'naviy barkamol, mustaqil fikrlovchi va axloqan yetuk inson qilib tarbiyalash muhim ham pedagogik, ham psixologik vazifalardan biri hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri - yosh avlodning ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol bo'lib voyaga yetishidir. Ayniqsa, o'smirlik davrida shaxsning qadriyatlar tizimi, ijtimoiy xulq-atvori va hayotiy qarashlari shakllanadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'smirlik davri shaxs rivojlanishining muhim va murakkab bosqichi bo'lib, bu davrda insonning ichki dunyosi, qadriyatlar tizimi hamda jamiyatga bo'lgan munosabati faol shakllanadi. Aynan o'smirlik davrida shaxsning qanday qadriyatlarga tayanishi, jamiyatda o'zini qanday tutishi va hayotga qanday qarashi belgilana boshlaydi. Eng avvalo, o'smirlik davrida qadriyatlar tizimi shakllanadi. O'smir yaxshilik va yomonlik, adolat va nohaqlik, burch va mas'uliyat kabi tushunchalarni chuqurroq anglay boshlaydi. Bu jarayonda oila, maktab, tengdoshlar guruhi va ommaviy axborot vositalari muhim ta'sir ko'rsatadi. O'smir avval tashqi talab va qoidalarga bo'ysunsa, asta-sekin ularni ichki e'tiqod va shaxsiy qarashlariga aylantirib oladi. Ijtimoiy xulq-atvor o'smirlik davrida jadal rivojlanadi. O'smir jamoadagi o'rnini anglashga intiladi, tengdoshlar bilan munosabatlarga katta ahamiyat beradi va ijtimoiy rollarni sinab ko'radi. Ushbu jarayonda ijtimoiy taqlid, yetakchilikka intilish va mustaqillik ehtiyoji kuchayadi. Agar ijtimoiy muhit ijobiy bo'lsa, o'smirda mas'uliyat, hamkorlik va hurmat kabi fazilatlar shakllanadi. Keyin esa, o'smirlik davrida hayotiy qarashlar shakllana boshlaydi. O'smir o'z kelajagi, kasbi, jamiyatdagi o'rni va hayot maqsadlari haqida o'ylaydi. Bu davrda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil va shaxsiy pozitsiyani shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Hayotiy qarashlar ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unlashganda, shaxsning barqaror rivojlanishi ta'minlanadi. Ushbu davrda shaxsning qadriyatlar tizimi, ijtimoiy xulq-atvori va hayotiy qarashlari o'zaro uzviy bog'liq holda shakllanadi. Ushbu jarayonda to'g'ri tarbiya, ijobiy ijtimoiy muhit va ma'naviy-axloqiy yo'naltirish o'smirning barkamol shaxs bo'lib yetishishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu jarayonda milliy urf-odatlar va an'analar o'smirlarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishning muhim ijtimoiy-madaniy omili sifatida namoyon bo'ladi. Milliy urf-odatlar o'zida avlodlar tajribasini, axloqiy me'yorlarni va ma'naviy qadriyatlarni mujassam etgan bo'lib, ular o'smirlar ongiga hurmat, vijdon, mas'uliyat, halollik va mehr-shafqat kabi fazilatlarini singdiradi. Masalan, kattalarni e'zozlash, mehmonnavozlik, o'zaro yordam, sabr-toqat va bag'rikenglik kabi an'analar o'smir shaxsining ijtimoiylashuv jarayonida muhim tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Oilada shakllanadigan milliy tarbiya an'analari o'smirning dastlabki axloqiy tajribasini belgilaydi. Ota-ona va kattalarning kundalik xulq-atvori, urf-odatlarga amal qilishi o'smir uchun namuna va ijtimoiy taqlid manbai bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, oilaviy





marosimlar, bayramlar va an'anaviy tadbirlar orqali o'smirlar jamiyat me'yorlarini amalda o'zlashtiradi. Ta'lim muassasalarida milliy urf-odat va an'analarni tarbiyaviy jarayonga integratsiya qilish o'smirlarning milliy o'zlikni anglash va ma'naviy barqarorligini kuchaytiradi. Milliy qadriyatlarga asoslangan suhbatlar, tadbirlar, rolli o'yinlar va jamoaviy mashg'ulotlar o'smirlarda ijtimoiy mas'uliyat va jamoaga daxldorlik hissini rivojlantiradi. Mahalla va jamoat muhitida amalga oshiriladigan an'anaviy tadbirlar esa o'smirlarni faol ijtimoiy hayotga jalb etib, ularning ijtimoiy moslashuvi va axloqiy xulq-atvorini mustahkamlaydi. Mahalla doirasidagi xayriya ishlari, umumxalq bayramlari va jamoaviy tadbirlar o'smirlarning ijtimoiy tajribasini boyitadi hamda ijtimoiy hamjihatlikni shakllantiradi.

Globallashuv sharoitida milliy urf-odatlar va an'analarni ma'naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatida qo'llash o'smirlarni salbiy axborot ta'siridan himoya qilish, ularning ma'naviy immunitetini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega. Milliy qadriyatlarga tayangan tarbiya o'smir shaxsida mustahkam axloqiy pozitsiya va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantiradi. O'smirlarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishda milliy urf-odatlar va an'analarni shaxsning axloqiy ongini rivojlantiruvchi, ijtimoiy moslashuvini ta'minlovchi va ma'naviy barqarorligini mustahkamlovchi muhim tarbiyaviy omil hisoblanadi. Ushbu an'analarni oila, maktab va jamiyat hayotiga uyg'unlashtirish o'smirlarning barkamol shaxs bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. O'smirlik davri shaxs ma'naviy-axloqiy qiyofasining shakllanishida eng muhim va murakkab bosqichlardan biri hisoblanar ekan, ushbu davrda o'smirning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy xulq-atvori va o'zini anglash jarayoni faol rivojlanadi. Shuning uchun ham o'smirlarda ma'naviy - axloqiy tarbiyani shakllantirishda yuqori samaradorlikka erishish ta'lim-tarbiya tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Avvalo, ma'naviy-axloqiy tarbiyada oila, maktab va jamiyat hamkorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Oila o'smir shaxsining dastlabki axloqiy tajribasini shakllantiruvchi asosiy muhit bo'lib, ota-onaning shaxsiy namunasi, munosabat madaniyati va qadriyatlarga amal qilishi tarbiya samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Maktab esa mazkur tarbiyani tizimli ravishda davom ettirib, bilim va tarbiyani uyg'unlashtirgan holda o'smir shaxsining ma'naviy kamolotiga xizmat qiladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida faol va interaktiv metodlardan foydalanish samaradorlikni oshiradi. Muhokama va suhbatlar, rolli o'yinlar, dramatizatsiya, axloqiy vaziyatlarni tahlil qilish kabi metodlar o'smirlarning mustaqil fikrlashi, refleksiya va ongli qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu jarayonda o'smir tarbiya subyekti sifatida faol ishtirok etadi. Shuningdek, yuqorida ta'kidlaganimizdek, milliy urf-odatlar va an'analarga tayangan tarbiya o'smirlarda milliy o'zlikni anglash va ma'naviy barqarorlikni mustahkamlaydi. Milliy qadriyatlarga asoslangan tadbirlar, bayramlar va tarbiyaviy mashg'ulotlar o'smirlarning axloqiy me'yorlarni real hayotiy tajriba orqali o'zlashtirishiga yordam beradi. Tarbiyada tengdoshlar guruhi va referent muhitning ijobiy yo'naltirilishi ham muhim hisoblanadi. O'smirlar ko'pincha tengdoshlar ta'sirida bo'lganligi sababli sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirish, yetakchi va mentorlarni to'g'ri tanlash tarbiyaning samaradorligini oshiradi. Ijobiy namuna va ijtimoiy taqlid orqali axloqiy





qadriyatlar mustahkamlanadi. Ma'lumki, o'smirlik davri shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishida hal qiluvchi bosqich bo'lib, bu davrda ijtimoiy muhit va atrofdagi shaxslarning xulq-atvori muhim ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ijobiy namuna va ijtimoiy taqlid mexanizmlari orqali o'smirlarda axloqiy qadriyatlarning mustahkamlanishi muhim pedagogik-psixologik ahamiyatga ega. Ijobiy namuna deganda ota-ona, ustoz, murabbiy, yetakchi shaxslar va ijtimoiy jihatdan e'tirof etilgan shaxslarning axloqiy xulq-atvori tushuniladi. O'smirlar ko'pincha kattalarning aytganidan ko'ra qilgan ishlariga ko'proq e'tibor beradi. Shu bois, kattalarning halollik, adolat, mas'uliyat, sabr-toqat va mehr-shafqat kabi fazilatlarni kundalik hayotda namoyon etishi o'smirlar uchun kuchli tarbiyaviy ta'sir vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy taqlid esa o'smirlarning tengdoshlar, referent guruhlar va ijtimoiy muhitdagi xulq-atvorni kuzatib, uni takrorlash jarayonidir. Ushbu mexanizm ijobiy yo'naltirilgan taqdirda, o'smirlar axloqiy me'yorlarni tez va samarali o'zlashtiradi. Sog'lom tengdoshlar muhiti, ijobiy yetakchilar va konstruktiv guruh faoliyati axloqiy qadriyatlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Ijobiy namuna va ijtimoiy taqlidning uyg'unligi o'smirda ichki nazorat va vijdon hissini rivojlantiradi. O'smir nafaqat boshqalarga o'xshashga intiladi, balki axloqiy xatti-harakatlarning mazmunini anglab, ularni shaxsiy qadriyatlariga aylantiradi. Natijada axloqiy xulq-atvor tashqi majburiyat emas, balki ichki ehtiyoj sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, o'smirlarda ijobiy namuna va ijtimoiy taqlid orqali axloqiy qadriyatlarning mustahkamlanishi tarbiya jarayonining muhim sharti hisoblanadi. Ijobiy muhit, sog'lom referent guruhlar va kattalarning shaxsiy namunasi orqali o'smir shaxsida barqaror axloqiy pozitsiya va ijtimoiy mas'uliyat shakllanadi. Ma'lumki, o'smirlik davri shaxsning axloqiy ongini shakllantirish, ijtimoiy munosabatlarga kirishish va mustaqil hayotiy pozitsiyani belgilash bilan tavsiflanadi. Aynan shu bosqichda o'smir shaxsida barqaror axloqiy pozitsiya va ijtimoiy mas'uliyatning shakllanishi kelgusidagi shaxsiy va ijtimoiy hayot uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Barqaror axloqiy pozitsiyaning shakllanish jarayoni o'smirning qadriyatlar tizimi rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. O'smir dastlab axloqiy me'yorlarni tashqi talablar sifatida qabul qiladi, keyinchalik esa ularni ichki e'tiqod va shaxsiy qarashlariga aylantiradi. Bu jarayonda vijdon, burch, adolat va halollik tushunchalarining mazmunan anglanishi muhim rol o'ynaydi. O'smir axloqiy vaziyatlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish va ularning oqibatlarini baholash orqali o'z pozitsiyasini mustahkamlaydi. Ijtimoiy mas'uliyatning shakllanishi esa o'smirning jamiyatdagi o'rnini anglash va ijtimoiy rollarni egallash jarayoni bilan uzviy bog'liqdir. Jamoadagi faol ishtirok, ijtimoiy vazifalarni bajarish, tengdoshlar bilan hamkorlik qilish o'smirda mas'uliyat hissini kuchaytiradi. O'smir o'z harakatlarining nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy oqibatlarini ham anglay boshlaydi. Mazkur jarayonning muvaffaqiyatli kechishi bir qator psixologik shart-sharoitlarga bog'liq. Avvalo, qo'llab-quvvatlovchi va ishonchga asoslangan ijtimoiy muhit mavjud bo'lishi zarur. Ota-ona, ustoz va tengdoshlar tomonidan ko'rsatiladigan ijobiy munosabat o'smirning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Ikkinchidan, ijobiy namuna va sog'lom referent guruhlarining mavjudligi axloqiy me'yorlarning ichkilashtirilishini tezlashtiradi. Shuningdek, o'smir shaxsida





refleksiya, o'zini anglash va ichki nazoratning rivojlanganligi muhim psixologik shart hisoblanadi. O'z xatti-harakatlarini tahlil qilish, xatolardan xulosa chiqarish va o'zini baholash orqali o'smir tashqi nazoratdan ichki nazoratga o'tadi. Bu esa barqaror axloqiy pozitsiyaning shakllanishiga zamin yaratadi. O'smirlar shaxsida barqaror axloqiy pozitsiya va ijtimoiy mas'uliyatning shakllanishi murakkab, bosqichma-bosqich jarayon bo'lib, u ijtimoiy muhit, tarbiyaviy ta'sirlar va shaxsning ichki psixologik rivoji uyg'unligida amalga oshadi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etish o'smirning barkamol va jamiyatga mas'uliyatli shaxs bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, o'smirlarda refleksiya, ichki nazorat va vijdon hissini rivojlantirish samaradorlikning muhim omillaridan biridir. O'z xatti-harakatlarini tahlil qilish, axloqiy dilemmalarni muhokama etish va o'z-o'zini baholash mashqlari orqali o'smir tashqi nazoratdan ichki nazoratga o'tadi, bu esa barqaror axloqiy xulq-atvorni shakllantiradi. Albatta, ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash usullaridan oqilona foydalanish ham muhimdir. Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash o'smir shaxsida ijobiy xulq-atvorni mustahkamlash, axloqiy qadriyatlarni ongli ravishda o'zlashtirishda muhim pedagogik-psixologik vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuv o'smirning ichki motivatsiyasini kuchaytirib, uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Rag'batlantirish, avvalo, o'smirning ijobiy harakatlarini e'tirof etish va baholash orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda maqtov, ishonch bildirish, jamoa oldida e'tirof etish kabi usullar qo'llanilib, o'smirda mas'uliyat, vijdon va o'zini hurmat qilish hissi shakllanadi. Rag'batlantirish tashqi mukofotdan ko'ra, axloqiy qadriyatlarni anglashga yo'naltirilgan bo'lishi muhimdir. Qo'llab-quvvatlash esa o'smirning xatolariga nisbatan tushunish, yo'l-yo'riq ko'rsatish va ijobiy muhit yaratishni anglatadi. Bu jarayonda tanqid emas, balki maslahat va hamkorlikka asoslangan yondashuv ustuvor bo'lib, o'smirning o'z xatti-harakatlarini tahlil qilish va to'g'ri xulosa chiqarishiga yordam beradi. Natijada shaxsda ichki nazorat va axloqiy barqarorlik rivojlanadi. Shuningdek, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashning tizimli va adolatli bo'lishi tarbiyaning samaradorligini oshiradi. Har bir o'smirning individual imkoniyatlarini hisobga olish, kichik yutuqlarni ham e'tirof etish ularning ma'naviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan, ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida rag'batlantirish va qo'llab - quvvatlash o'smir shaxsida ijobiy axloqiy fazilatlarni mustahkamlash, ichki motivatsiyani kuchaytirish va barkamol shaxsni tarbiyalashning muhim sharti hisoblanadi. Ijobiy xulq-atvorni e'tirof etish o'smirda ichki motivatsiyani kuchaytiradi va axloqiy fazilatlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya — shaxsning jamiyatdagi xulq-atvori, qadriyatlarga munosabati, insoniy fazilatlari va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirish jarayonidir. Zamonaviy metodologiyada quyidagi tamoyillar muhim o'rin tutadi:

1. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv

Har bir o'smirning qiziqishi, psixologik xususiyati va ehtiyojlarini hisobga olish zarur. Tarbiya jarayonida individual yondashuv orqali yoshlarning mustaqil fikrlashi va ijobiy fazilatlari rivojlantiriladi.





2. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi

Yoshlarni milliy an'analarga hurmat ruhida tarbiyalash bilan birga insonparvarlik, bag'rikenglik, halollik va vatanparvarlik kabi umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish muhimdir.

3. Raqamli madaniyatni rivojlantirish

O'smirlarga internetdan to'g'ri foydalanish, axborotni tahlil qilish, zararli kontentdan himoyalash va media savodxonlik ko'nikmalarini singdirish bugungi kunning asosiy talabidir.

4. Integrativ yondashuv

Ma'naviy tarbiya faqat maktab bilan cheklanib qolmasdan, oila, mahalla, ommaviy axborot vositalari va ta'lim muassasalari hamkorligida olib borilishi kerak.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, o'smir tarbiyasida oila asosiy muhit hisoblanadi. Ota-onaning farzand bilan samimiy muloqoti, internetdan foydalanishini nazorat qilishi va foydali mashg'ulotlarga yo'naltirishi muhimdir. Maktab esa tarbiyaviy tadbirlar, ma'naviyat soatlari va innovatsion metodlar orqali yoshlarning axloqiy fazilatlarini rivojlantiradi.

Oila, maktab va jamiyat hamkorligi mustahkam bo'lsa, o'smirlarning ma'naviy immuniteti ham kuchli bo'ladi.

Zamonaviy raqamli dunyoda o'smirlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirish murakkab, ammo dolzarb vazifadir. Raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, yoshlarni media savodxonlikka o'rgatish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'un holda singdirish orqali barkamol avlodni tarbiyalash mumkin. Shu sababli ta'lim tizimida innovatsion pedagogik metodlar, zamonaviy tarbiya texnologiyalari va hamkorlik mexanizmlarini keng qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2017.

2. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi hamda O'zbekiston yoshlari forumida so'zlagan nutqidan iqtiboslar. “Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik” kitobi. Toshkent 2021 y. “Tasvir” nashriyot uyi.

3. E.G'.G'oziev. *Psixologiya*. Toshkent-2008.

4. B.M.Umarov. *Psixologiya*. Toshkent-2012.

5. Bandurka A.M., Druz V.A. *Etnopsixologiya*. -SPb.: Piter. 2000.

6. Botirov B.M. *Etnopsixologiya*.-T.: Fan va texnologiya.2012

